

# JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH

# JISER

International  
multidisciplinary  
scientific journal



**Volume 2, Issue 13**

- ✓ Academic journal, an academic or scholarly periodical
- ✓ Scientific journal, an academic journal focusing on science
- ✓ Medical journal, an academic journal focusing on medicine
- ✓ Law review, a professional journal focusing on legal interpretation



**JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH**  
**VOLUME-2, ISSUE-13 (26-December)**

VOLUME-2, ISSUE-13		
1.	<b>SPORTCHILAR UCHUN ENG YAXSHI TIKLANISH STRATEGIYALARI QANDAY BO'LISHI KERAK?</b> <i>F.F.Qoraboyev</i>	<b>15</b>
2.	<b>UMUMTALIM MAKTABALARIDA GANDBOL DARSLARINI TASHKIL ETISHNING ASOSIY KOMPONENTLARI</b> <i>D.D.Egamberganova</i>	<b>21</b>
3.	<b>HAZARDOUS AND HARMFUL PRODUCTION FACTORS.</b> <i>Khokimyatov Azizbek</i>	<b>26</b>
4.	<b>«IMPORTANCE OF TEACHING READING AND LISTENING SKILLS IN ENGLISH LESSONS»</b> <i>Abbos Odinayev</i>	<b>29</b>
5.	<b>FARG`ONA VODIYSI ME`MORLIGIDA AMALIY SAN`ATNING BADIY-ESTETIK AHAMIYATI.</b> <i>Paxriddinova Nilufar Habibullayevna</i>	<b>33</b>
6.	<b>QORAQALPOQ XALQ OG'ZAKI IJODIDAGI ISLOMIY AFSONA VA RIVOYATLAR.</b> <i>Kosbergenov B. Kosbergenov R</i>	<b>35</b>
7.	<b>NOMA'LUMNING KASR QISM FUNKSIYASI VA UNGA BOG'LIQ HOLATLAR</b> <i>Muhammademinov Alijon Azizjon o'g'li</i>	<b>39</b>
8.	<b>G'AFUR G'ULOMNING BIZGA QOLDIRGAN OLTINLARI</b> <i>Maxmudov Mehrojbek Bahodir o'g'li</i>	<b>41</b>
9.	<b>OVERVIEW OF WIRELESS TECHNOLOGIES FOR MODERN MOBILE COMMUNICATION DEVICES</b> <i>Kh.K. Abdullaeva</i>	<b>44</b>
10.	<b>МЕТОДЫ И МОДЕЛИ ЖИВУЧЕСТИ В СЕТЯХ МОБИЛЬНОЙ СВЯЗИ</b> <i>Гафуров А.Ш</i>	<b>49</b>
11.	<b>INSULINGA O'XSHASH O'SISH OMILINING KLINIK TAVSIFLARI.</b> <i>Mardonov Sanjar Yoqub o'g'li Sherov Sherzod Abdurasulovich</i>	<b>55</b>
12.	<b>TA'LIMDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH</b> <i>M.Barakayeva</i>	<b>59</b>
13.	<b>TASVIRIY SAN'ATDA RANGTASVIR TEHNIKA VA TEHNOLOGIYASINING TA'LIM JARAYONIDA RANGLARDAN FOYDALANISH USULLARI</b> <i>Hasanboyeva Ozoda Haydarali qizi</i>	<b>63</b>
14.	<b>MANZARA JANRINING TASVIRIY SAN'ATDAGI O'RNI</b> <i>Abdumajitov Avazjon Shuxrat o'gli Abdumajitova Nargiza Komoliddin qizi</i>	<b>67</b>
15.	<b>ISSIQXONA ISHCHILARINI MEHNAT SHAROITINI BAHOLASH VA XAVFSIZLIGINI OSHIRISH CHORALARINI ISHLAB CHIQISH.</b> <i>O'ranova Sadoqat Kobuljonovna Qaxxorova Feruzaxon</i>	<b>69</b>
16.	<b>IJTIMOIY HAYOTIDA FUQAROLIK KOMPETENSIYASINING STRUKTURALARINI</b>	<b>73</b>

**Abdumajitov Avazjon Shuxrat o'gli**

*CHDPU "Tasviriy san'at va dizayn" kafedrasini o'qituvchisi*

**Abdumajitova Nargiza Komoliddin qizi**

*CHDPU "Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi" yo'nalishi talabasi*

**Annotatsiya:** *Gohida shunday san'at asarlari yaratiladiki, asrlar davomida uning qarshisida o'zimiz hayratda qolamiz. Bunday go'zal asarlarni yaratguncha ijodkorni katta mehnati, sabr-toqati, qalb go'zalligi, mehr va ko'z nurlari singib, keyin insonlar qalbini zabit etish uchun shoshilganga o'xshaydi. Bunday san'at insonni o'ziga asrlar davomida chorlaydi.*

Turli tarixiy davrlarning ma'naviy va moddiy meroslari – dunyo madaniyatining yorqin sahifalaridan biriga aylanib, ilm-fan, me'morchilik, tasviriy va amaliy san'ati o'zi bilan dunyo miqyosidagi ajoyib favqulodda holatini namoyon etdiki, bu o'z navbatida xalqimiz san'atini O'zbekiston san'ati deb shuhrat qozonishi bejiz emasligining shubhasiz dalilidir. Bu boradagi tub o'zgarishlar ayniqsa tasviriy va amaliy san'atda yaqqol ko'zga ko'rindi.

Mustaqillik yillarida milliy qadriyatlarimizni tiklash, buyuk ajodolarimiz merosini o'rganish, asrash va boyitish borasida misli ko'rilmagan ishlar amalga oshirildi. Jahon tasviriy san'atiga o'lkan hissa qo'shgan buyuk rassomlarimizning yubileyлari keng nishonlanib, ularning ilmiy merosini targ'ib etish ishlari muntazam ravishda yo'lga qo'yildi.

O'zbekiston tasviriy va amaliy san'atning gullab yashnashida xizmat qilgan buyuk rassomlar ijodini o'rganish muxim masala xisoblanadi. Ijodkor xar bir asarini yozar ekan, uni to'laqonli yoritishni buyuk rassomlar asarlaridan o'rnedi. Kompozitsion jixatlarini va ularning joylashuv nuqtalaridan tortib ranglarning qo'yilishigacha bo'lgan jarayonnarni birma-bir ko'zatib yaratayotgan ijodiy ishi ustida xulosa chiqaradi.

Tasviriy san'atda bir nechta janrlar bo'lib, xar bir janr o'z o'rnida yana bir qancha janrlarga bo'linishi mumkin. Masalan tabiat manzarasi janri, shahar manzarasi janri, industrial manzara janri, dengiz manzarasi (marina) janri yoki portret janrini tantanavorlik, ishqiy, guruqli janrlarga bo'lish mumkin. Manzaraning bir qancha turlari mavjud: shahar (arkitektura) qishloq, (tug'lar) sanoat (zavod, fabrika, me'moriy qurilishlari) manzara janrlari kiradi. Bularning har bir negizida o'zgacha mazmun g'oya yotadi. Masalan shahar manzarasida shahar hayoti, baland imoratlar, transport vositalari, oromgoh bog'lar, yer osti o'tish joylari, qishloq manzarasida, bepayon kenglik, qoya toshlar, yaylovlari, tug'lar, o'simliklar, jilvakor suvlar, ko'priklar o'quvchi yoshlarni o'ziga jalb qilishi tabiiydir. Lirik manzarada, tabiatdagi manzaralar "Erta tong", "Bahor", "Oppoq qor", "Oltin kuz" kabi manzaralar tabiatning nozik, sokin go'zalligini, uning uyg'onish holatini aks ettiruvchi, insonga quvonch baxsh etuvchi asarlarni ko'z oldimizga keltiramiz. Voqelik tasviri va inson atrofini o'rab olgan tabiat ko'rinishi manzarada o'z aksini topadi. Shu ma'noda manzara his-

hayajonli ko'rinish va g'oyaviy mazmun kasb etadi. Ayniqsa manzara chizish jarayonida perspektivani va kompozitsion to'g'ri joylashtirishni hamda rangni to'g'ri tanlashi muhim. Manzara chizish jarayonida bo'yoqlar bilan ishslash murakkab jarayon hisoblanadi. Bo'yoqlar bilan ishslashni to'g'ri tashkil etish uchun zarur bo'lgan metodik tavsiyalar, zarur bilim, ko'nikma va malakaga ega bo'lish kerak. manzara chizish vaqtida ranglarning och-to'qligi, yorug'-soya, ranglarga tushayotgan yorug'lik ta'sirida bo'ladi. Yorug'likni ta'siri uzoqlashgan sari ranglar ocharib boradi, yaqinlashgan sari esa to'qlashib, yorqinlashib boradi.

Xulosa qilib aytganda tasviriy san'at janrlari ichida tasvirilanishi va serjilo ranglarni o'zida mo'jassamlashtirishi bilan ajralib to'rvuchi manzara janri doimo san'at axlini xam, san'at ixlosmandlarini xam, birdek jo'shqinlantirib kelgan. Manzara janrida ijod qiladigan rassomlar palitrasining boyligi ijodining sermaxsulligida o'z ifodasini topadi. . Manzara janri bu nozik xislarga tayangan jarayonki, unda butun borliq bir nuqtalar tutashib, murakkab shakllar va ruxiy kechinmalarning g'ayrioddiy namunasi vujudga keladi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Shavkat Mirziyoev. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston Davlatini birgalikda barpo etamiz. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bagiitangan Oliy majlis palatalarining ko'shma majlisidagi nutqi Toshkent 2016 yil. 14 –bet.

2. Toqtosh R.X. "Izobrazitelnoe iskusstvo Uzbekistana" Fan. T.: 1972 g

3. Toqtosh R.X. "Xudojestvenno - kriticheskoe etyudi" Fan.T.:1992 y.

4. O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi.T.

5. Abdumajitov A.Sh. "Ona zaminimizning rango-rang go'zalligi taxlili" (Ona zamin ohanglari) rangtasvir asari misolida magistlik dissertatsiyasi

6 .Тўгарак машғулотларида халқ амалий bezak санъати ривожининг педагогик муаммолари тарихидан Муғаллим ҳәм узлуксиз билимленидириў – 2022 yil № 1-1. ISSN 2181-7138

7. ТАСВИРИЙ САЪНАТДА МАШҒУЛОТЛАРИДА ИЛЛЮСТРАЦИЯ

ЎРГАТИШНИНГ АҲАМИЯТИ Муғаллим ҳәм узлуксиз билимленидириў – 2021 yil № 3-2. ISSN 2181-7138